

Uydan asabiy chiqdi. Xotiniga biron nima deyishga haddi bo'lmadi. To'g'risi, gapni ko'paytirmadi. Ustiga-ustak, mashinaning akkumulyatori ham o'tirib qolibdi.

Jahl bilan yerga tupurdi. Xotining beto'xtov vaysashini eshitmay, deb yomg'irpo'shining tugmasini ustma-ust qadaganicha ko'chaga shoshildi.

Qarasa, trolleybus kelayotibdi. Chopib chiqib oldi. Aslida, taksi to'xtatsa ham bo'lardi. Endi bu trolleybus deganlari shunday tashbaqa yurish qiladiki, tushib olib, yayov yugurib ketgilaring keladi. Ertalab bir kayfiyating buzilib, ishing yurishmasa, tamom, oxirigacha yurishmaydi. Endi qachon yetib boradi-yu... Mashinaga o'rgangan odam, jamoat ulovida yurishi qiyin ekan. Odam o'zini xo'rlangandek xis etadi. Xayolidan shunday o'y kechar ekan, u bir qur trolleybus ichiga nazar solib chiqdi. Shunda to'satdan qulogiga tanish, judayam tanish ovoz eshitildi. Eshitildi-yu, shuurini ag'dar-to'ntar qilib yubordi.

- Mastura opa, ishga boriyb turibsizmi?- yoshgina ovoz yonidagi hamrohi bo'lgan ayoldan so'roqlardi.

- Ha, aylanay, bormay bo'ladimi. Uydayam ezilib ketarkan odam. Picha betoblanib qoluvdim, o'tirolmadim, siqilib ketdim. Bor-e, deb ishga chiqib oldim.

U beixtiyor ovoz kelgan tomonga o'grildi. Ugirildi-yu, yuragi orqasiga qalqib ketganday bo'ldi.

U qachonlardir bir kun kelib, uni uchratishini, yuzma-yuz kelishini his qilardi. Lekin uni hech qachon bunday kepatada, bunday raftorda ko'raman degan o'y hayolining bir chekkasidan o'tmagan edi.

Ayolning yuzlari osoyishta ko'rinardi. Chamasi, u hech nimaga da'vogar emas, umidvor ham emasdi. Bir paytlar shu ayol, ha, bir paytlar shu yoshgina qiz kulganicha, bari o'tar-ketar, lekin xotira qolar, derdi.

Qiz bashorati haq chiqdp.

Kishi borib-borib kelajak orzusi bilan emas, xotiralar bilan yasharkan.

Esida, bari esida. O'shanda, shunday qo'shiq bo'lardi:

"Eh, kechki poezd, kechki poezd,

Seviklimni olib ketding-a...B "

Bu qo'shiqda qayg'udan ko'ra betashvish ohang, sho'xchang ohang mujassam edi. Quyoshning so'nggi nurlari olamni g'arq etayotgai palla. Kuy tinimsiz yangraydi, sho'x sadolar xonani tutadi. Quyoshning so'nggi nurlari ostida, kechki poezdning relslarini taraqlatib kelishidan temir yo'l chekkasidagi za'faron tus devonagullar, yashil maysalar titrab ketadi. Aslida hech qanday poezd relslarni gumburlatib o'tmaydi. Bu shunchaki qo'shiq qo'zg'agan taassurot, xolos.

Tevarak fayzli, yoz shomi ham emas.

Tashqarida qor maydalab, ezilib yog'yapti. Buni uzun simyogochlarga osilgan chiroqlar nuridan payqash mumkin.

Qiz kuyga monand irgishlaydi, dimog'ida qo'shiqqa jo'r bo'ladi.

U to'satdan ayol o'tirgan suyanchiqqa yaqin borgisi, ayolning kiftlariga qo'l qo'yib, o'ziga qaratgisi, kechki poezdni so'roqlagisi keldi. Xayoliga kelgan bu o'ydan o'zi uyalib ketdi.

Yana... yana keng paxtazor esida qolgan. "Keng paxtazor. Hamma dalada". Bu siyqasi chiqqan iborani o'shandan hozirgi dovur bamaylixotir ishlatib kelishadi. Qiz o'shanda uzoqlardan unga peshvoz yugurib keldi. Ha, ha, o'shanda ular... yettinchi sinfdagilar paxtaga chiqishgan edi. Qiz esa oltinchi sinfdagi o'qir, o'shanda dadasiningmi, kimningdir o'rniga paxtaga chiqqaya edi chogi.

Ha, oriqqina qiz yelib keldi-yu, qo'lidagi tushlikda non bilan yeyman, deb olib kelgan bir bosh uzumni unga tashlab ketdi.

Xayolida shu manzara mixlanib qoldi. Olislardan istiqboliga yugurib kelayotgan nozikkina qiz... Qo'lidagi uzumni tashlab, ortiga qaytayotgan qiz...

Keyin... bir safargi kuz xayolida qolgan. Usha xotirasida qolgan yagona kuz. Kolxoz bog'i, jarlar orasidan mungli oqayotgan soy.

Shox-butoqlarida tinimsiz "chirq-chirq" qilayotgan qushlar. Atrof sokin, - odamzodning tiq etgan tovushi eshitilmaydi. Shu qiz ikkalasi jiyda terishga, jiyda xazanakka chiqdilar. Ikkalovi jiyda izlashga tutindilar. Jiyda degani qani endi topila qolsa. Sababi - jiyda allaqachonlar orqalab olib ketilgan. Faqat shox ostida shitir-shitir etgan xazonlar orasidan ahyon-ahyon chirik jiyda hidi gurkiraydi. Bahorda to'lib-toshib, ko'pirib oqayotgan soyda endi tiniq suv jildiraydi. Odamlar bog'lardan ko'chib bo'lgan, yozdagi gavjum klublar yolg'iz, so'nik! Hozir ham quloqlari ostida o'sha sukunatning ovozi jaranglaydi. Ular o'shanda kuz sukunatiga birga quloq tutdilar. Tugab borayotgan kuz ularga yal-yal yongan bahordan a'loroq bo'ldi.

Axir, qachon, qachon bu kunlardan qaytish bo'ldi? Qachon axir?

U xom sut emgan banda, bundan ham baxtiyorroq, bundan ham totliroq onlar kelajak, bundan ham go'zal kunlar bo'lajakligiga qat'iy ishongan edi.

Yana ular bir safar tongni birga qarshi oldilar. Tong chog'i qalbida kechgan hislarni, ko'ngil holatini birga-birga tong kutganlar aytsin!

Qiz uning pinjiga suqilganicha, g'alati hislar qurshovida pichirladi

- Ayting, ayting, kishi hech o'zi sevgan, ishongan narsasiga xiyonat qilmaydi-ya!

U ha, dedi, o'sha paytda ha, der edi! Hozir-chi? Qachon o'sha kunlarga xiyonat bo'ldi? Endi oradan ko'p yillar o'tib anglasa, qiz o'shanda o'zi ishongan, ishonmagan, shubha qilgan savollarga undan javob izlagan ekan.

"Ee, kechki poezd, kechki poezd, sevikliyimni olib ketding-a!"

Plastinka charchamay aylanadi, tinmay aylanadi, relslarni taraqlatib poezd yelib o'tadi. Temir yo'l bo'yidagi ko'm-ko'k maysalar, devonagullar o'tib ketayotgan poezd zarbidan titranadi.

Qiz kursiga cho'kkanicha, ro'molchasini o'ynaydi. Bir yigitga, bir yerga qaraydi. Yigitning esa yuragi negadir xijil. Hozir ham o'sha paytda nega ichi xijil bo'lganligini, ko'nglidan nimalar kechganini aniq ayta oladi bu qiz uning kelajagi emas edi! Hovir o'zini-o'zi toptagisi, tepkilagisi keladi. Xo'p, kelajaging kim bo'ldi, nima bo'ldi, galvars?!

Qiz o'shanda yotoqxona kursisida o'tirganicha, ro'molchasini o'ynaganicha mash'um haqiqatni aytdi. Bo'lgani bo'ldi, dedi, endi nima qilamiz, dedi. Ushanda u quloqlariga ishonmadi. Xonada uyoqdan - buyoqqa yurdi, boshini changalladi.

Qiz o'rnidan turdi.

- Nega bunchalik ezilasiz, nari borsa... - qiz g'aribgina jilmaydi.

- Nari borsa, to'y qilarmiz degin, a, seni... - U shunda odobning barcha chegaralaridan chikdi. Kabih so'zni ogziga oldi. O'shanda, bir oz keyin ham o'sha so'zni ayrganiga pushaymon bo'lgan edi.

Qiz beixtiyor yigit qarshisiga bordi. Tili kalimaga kelmadi, titradi. Uning esa jahli bo'g'ziga keldi, qarshisida turgan qizni itarib yubordi.

Qiz yerga mukkasidan tushdi. Asta turishga intildi. U qizga qaramadi, sapchib chiqib ketdi. Eshik taraqlab yopildi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Endi bina, o'shanda yoshmikka, o'sha kunlarga xiyomat bo'lgan ekan... Odamzot noshukurda, himmatni bilmaydi. Yodida, bu mash'um falokatga tunlari, kunlari chora izlaganlari... Hozirga kelib o'zini oqlashga chora izlayapti. Esida, o'shanday kunlari hamkursi, "Chiqarkansiz, bir qiz sizni so'rayapti", - deb qoldi. Shu payt tovonigacha qaltiroq turdi. Ichida qizni yana, koyidi. Tashqariga chiqdi. Dilida ming bir bahonani ro'kach qildi. Devorga suyanib turgan qizni ko'rib, darsdan keyin gaplashamiz, deyishga ogiz juftladi. Qiz uni ko'rди. Yigitga peshvoz yurdi. Qizning holatidan go'yo hech nima bo'lmadi, hech hodisa ro'y bermadi. O'shanda u qivzi tanimadi. - ... Hozir, gapirib bo'lay, keyin ketaverasiz. Faqat meni kechirsangiz bo'lgani, - qiz o'sha bir vaqtlar, ahil damlardagiday andak g'amda, andak erkalik bilan so'zlardi - urishmaysiz-da. O'sha kuni sizga o'sha gapni... hazillashib aytgan edim. - A? Nima?- O'z ovozi o'ziga begona eshitildi. - Aytyapman-ku, hazillashdim, deb. Sizni nima qilarkansiz, deb aytgandim. - Kiz hech nima bo'lmaganday xurram kuldi. Keyin, kizning o'sha holatini ko'p esladi, ko'p xayolida tikladi, bo'lmadi. O'shanda qiz chin kuldimi, yolg'on kuldimi, bilmadi. Shundan keyii u qizni aslo ko'rmadi. O'shanda qiz qaysi gapni gapirib uni aldadi - buni ham bilmadi. Bu unga jumboq bo'ldi. To'g'ri, o'shanda xavf, tufon o'tib ketdi, zilday yuk yelkasidan ag'darildi. Keyin, esida, jumboqni yechmok, umidida qizni izlab o'qish joyiga bordi, topolmadi. Kishloqdan izladi, topmadi - qiz izsiz yo'qoldi. Qishloqdagilar, qizni shu shaharga o'qishga ketganicha qaytmadi, deyishdi. Shahardan esa - topmadi. Keyinchalik, qishloqdan, onasi bechora qizi dardida kuyib ketdi, Mastura turmush ham qilmabdi, deb eshitdi. Nimaiki eshitsa bari mish-mish bo'ldi. Mana, hozir oradan qancha yil o'tgach, kallani bir joyga qo'yib o'ylasa, ko'nglining bir chekkasida qizning o'sha gapi, o'sha voqea chin bo'lganligiga amin bo'ldi. Shunda o'zini qo'yishga joy topolmadi. Mana, ayol osoyishta ketyapti. Ma'yusgina, garibgina ketyapti, dunyodan shunday o'tyapti. "Dardingni olay, sevgilim...B " Ko'ngli muztar bo'ldi. Beixtiyor oldinga intildi. Hozir uni tutib qololmasa, so'ramasa-so'roqlamasa, oyog'iga bosh urmasa, g'aflatda qoladi, u dunyosiyu bu dunyosi kuyadi... U shoshqaloqlik bilan oldidagi odamlarni itarib o'sha suyanchiqqa yaqin bordi. Chaqiraman, dedi. Nafasi bo'g'ziga tiqilib qoldi. - Kap-katta odam, nega turtasiz?- yonida turgan bakaloq xotin unga gazab qildi. Shunda ayol o'rnidan qo'zg'aldi. - Bo'pti, Mastura opa, yaxshi boring. - Bo'pti, jonim, xayr. Trolleybus "g'iyq" etib to'xtadi. Ayol o'rnidan turdi, eshikka bordi. Bir muddat hamrohiga o'g'irildi. U hovliqdi, jon-jahdi bilan ayol tomon intildi. Shunda ko'zlari to'qnash keldi. Ayol uni payqamadi. Bilmadi, tanimadi. Uning esa so'zga majoli bo'lmadi. O'tkinchi-ketkiichilar yo'lda tushib qoldi. Ayol ham tushdi ketdi. U shosha-pisha oyna tomonga o'tdi. Yuzlarini oynaga yopishtirib qaradi. Nahotki, uni tanimay adashtirgan bo'lsa? Nahotki? Axir yonidagi hamrohi ham, Mastura opa, dedi-ku! Yo'g-e, ana, bo'y-basti ham, yurish ham o'sha-o'sha-ku. Ana, ayol asta ketmoqda. Kulrang yomg'irpo'sh bari engidan silkinib-silkinib ketmoqda. Boshini mag'rur ko'targancha, xotirjam ketmoqda. Trolleybus g'izillab ketdi. Shu payt nazarida ayolning ko'zlari trolleybusga intiq, shoshilib tikilganday bo'lib ketdi!

Axiyri kulrang yomg'irpo'shni ko'z ilg'amay qoldi. Ancha ortda qolib ketdi.